

TIL BILIMI HÁM ÁDEBIYATTANÍW

Til bilimi

УДК 81'366.548

NEMIS TILIDAGI AKKUZATIV KELISHIGINING QORAQALPOQ TILIDA IFODALANISHI

G.Abishova – o'qituvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tavanch so'zlar: qivosiv tipologiya, qardosh bo'lmagan tillar, nemis tili, qoraqalpoq tili, akkuzativ va tushum (tabis) kelishiklari.

Ключевые слова: сравнительная типология, неродственные языки, немецкий язык, каракалпакский язык, винительный и аккuzативный падежи.

Key words: comparative typology, unrelated languages, German, Karakalpak, accusative cases.

So'nggi vaqtlarda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Chet tilini o'rganuvchi ona tiliga xos bo'lmagan til hodisalariga duch keladi. Bu esa o'rganilayotgan til xususiyatlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Ushbu qiyinchiliklar natijasida yo'l qo'yilish mumkin bo'lgan holatlarni bartaraf qilish uchun xorijiy til bilan ona tilining o'xshash yoki noo'xshash tomonlari to'la hisobga olinishi lozim.

E'tiborga loyiq tamoni shundaki, o'zbek tili german va roman tillari bilan qiyosiy tipologik tadqiqot qilingan bo'lsa, qoraqalpoq tili faqatgina german tillari – ingliz va nemis tillari bilan qiyosiy o'rganildi va shunday bo'lib qolmoqda. Buning sababini ham Qoraqalpog'iston oliy o'quv yurtlarida faqat german tillarining o'qitilishida ko'rish mumkin.

Xorijda, shuningdek, mamlakatimizda chop etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida qiyoslash hamda taqqoslash atamalarini bir-biridan ajratish, farqlash va boshqa-boshqa xodisalar sifatida olib qarash hollari kuzatiladi.

Qiyoslash va taqqoslash atamalarining bugungi kunda saqlanib kelayotgan chigalliklarining asosiy sabablari lingvistikada qiyosiy metodlarni qo'llash metodik manbalarda qiyosiy metodlar sifatida ishlatila boshlanishi hamda G'arbiy Yevropa tilshunosligida qo'llanadigan "Comporative", "Vergleichen", va "Compare" atamallari "qiyoslash" va "taqqoslash" atamalarini qoplaydi, ammo tilshunoslikda bu istilohlar, asosan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ma'nosida qo'llaniladi [4: 35-38].

Vaholanki, tilshunos olim Erbenning ta'kidlashicha nemis tilidagi leksikaning 50-60 foizini ot turkumiga mansub so'zlar tashkil qilar ekan [1:35]. Bunda u ot bo'lmagan boshqa so'zlarning atalishini ham nazardan chetda qoldirmagan.

Olmoshlar jo'nalish (baris) kelishigida asosan affiksli ishlatiladi.

1. Kishilik olmoshlari:

Al, men sizdi uyinizge deyin shig'arip salaman.

Ol meni, men on kordim. (O.Ayjanov «Aral qushag'inda»)

2. O'zlik (ozlik) olmoshi o'z, kelishik affiksida oldin egalik affiksi qo'shiladi: *Ozimdi misalga alganda, putin kolxoz tuvrali aytpaqshi edim.* (O.Ayjanov «Aral qushag'inda»)

Toti qusqa ozin takiraratlap, putkil alemdi hareketke keltirip qoygan ulli kush-adamni ozi. (T. Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»)

3. Gumon (belgisizlik) olmoshi: *Sonliqtan otirik bolsa da bir narseni siltawlatip sorap barıwı kerek.* (O.Ayjanov «Aral qushag'inda») Bu olmosh ba'zan belgisiz ham ishlatiladi: *Men bir narse aytayın* (O.Ayjanov «Aral qushag'inda»)

4. Ko'rsatish olmoshlari: Siz *minanı* aytpaqshi shig'arsız. *Buni esaplagan shotınnan aynalayın, Narımbetjan, Sonı nege aytpaysañ?* (O.Ayjanov «Aral qushag'inda»)

5. Bo'lishsizlik (bolimsizlik) olmoshlari: *Ernazar bolsa esikten kirgen jerde ishtegi tastay tınek qarańıdan kózleri hesh narseni kormey qaldı* (A. Bekimbetov) Olmoshning bu turi ham ayrim hollarda til uslubiga binoan belgisiz ishlatiladi: *Ol hesh narse aytpay shıgıp ketti.*

6. Belgilash (belgilew) olmoshlari, ular ham ba'zan belgisiz ishlatiladi. *Qıyal alıp qashadı, hár narselerdı oylatadı.* (N.Dáwqaraev) *Onnan hár narseni kútiwge boladı. Hárkimdi tilinen uslaydı.*

7. Sifatning avval substantiv forma yasovchi – liq affiksini, egalik suffiksini, keyingina kelishik affiksini olib ishlatilishi ham uchraydigan holat: *Ol usı danalıgın kórsetiw maqsetinde heshkimge sóz bermey bir ózi sóylep otırdı, degen menen qáteliklerindi tákirarlaw aqıldan emes.* (T.Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»). Onıń mártligin hámme bileđi.

8. Son to'ldiruvchi, jumladan, vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelsa belgisi ishlatiladi: *Besten úshiti alsaq qansha qaladı? Olardan ekewin alıp qalıw kerek.*

Jo'nalish (baris) kelishigi doim belgisiz ishlatiladigan konstruksiyalar turg'un bog'lanmalarga, frazeologik birliklarga to'g'ri keladi: *at qoyıw, nan jew, sóz salıw, dálıl keltirıw, qas qağıw, kóz jumıw, awız bastırıw, shay ishiw, dúz tatıw, telefon qurdırw, pal ashiw, leksiya oqıw, daw sheshiw, soraw beriw, zat soraw, namis etiw, jol beriw, jol kórsetiw, wáde etiw, ant ishiw* kabilar.

Oyda joq jerden Ernazar túrgelip sóz soradı – da: Bekimbet oğan sóz berdi. (O.Ayjanov «Aral qushag'inda»). *Bul ushın olar áwele ózlerine «Bizler kimlerміз?» degen soraw qoyıwı kerek edi.* (T. Qayıpbergenov «Qaraqalpaqnama»).

Professor O.Moskalskaya akkuzativ obyektini ikki turga bo'lib qaraydi [2: 97].

1. Tashqi yoki ta'sir etuvchi obyekt (lotincha *afficere* – birovga yoki biror narsaga ta'sir ko'rsatish) das Brot schneiden, einen Brief erhalten, einen Brief lesen kabilar. Ma'no ottenkasi ifodolanishi uchun harakat shu predmetda, shu predmet bo'ylab amalga oshadi, ammo predmet bu harakatga tobe bo'lmagan, ya'ni mustaqil holda mavjud bo'ladi.

2. Ikki yoki hosil qiluvchi obyekt (lotincha «*efficere*» – hosil qiluvchi, paydo qiluvchi, ishlab chiqaruvchi kabi) nolarni anglatadi: *einen Brief schreiben, ein Hochhaus bauen* kabilar. Predmet qilingan (aytilgan) harakatning natijasi (hosilasi) deb e'tirof qiladi R. Yakobson, Y. Erben, V. Schmidt va boshqa tilshunoslar.

Vositasiz obyektning xuddi shunday ikkiga bo'linishini turkiy tillar bo'yicha chop etilgan asarlarda ham uchratish mumkin. O'zbek tili grammatikasi I mualliflari hosila obyekt va vosita obyekt deb nomlaganlar. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, birinchisi shu harakatning hosilasi, natijasi sifatida predmet paydo bo'ladi (yozilgan xat, qurilgan uy), ikkinchisida esa ma'no ottenkasi ifodalanishi uchun harakat shu predmet bo'ylab amalga oshadi. (nonni kesish, yog'ochni yo'nish) [5: 81].

Bu degani vositasiz obyektning ma'no ottenkalarini, ularning ifodalanishida qiyoslanayotgan tillarda o'xshashliklar mavjud.

Absolyut akkuzativ strukturalari nemis tilida uning ozod, erkin ishlatilishi, deb qaraladi. Undagi ikki a'zoli struktura gapning hech qanday a'zosi tomonidan boshqarilmaydi. U gapda ozod va mustaqil ishlatiladi, mazmunan sifatli tarkibi yoki boshqa biror gap bo'lagiga o'xshash keladi. Bu strukturaning leksik cheklanganligi shundan iboratki, qo'llaniladigan otlar inson tana a'zolarini (*Arm, Hand, Bein, Fuß, Kopf* u.a.) yoki tana a'zolari bilan bog'liq tushunchalarni anglatadi.

Er trat ein, den Hut in der Hand – Ol kirip keldi, shlyapasi qolında. Er wandte sich um die Hand in der Türklinke – Ol oylanıp qaradı, qolı qapını tutqışında.

E.Schendels absolyut akkuzativning uchta modelini ko'rsatadi [3: 98]. Ular quyidagilar:

1. Akkuzativdagi ot + predlog bilan kelgan ot (ko'pincha dativda) ($S_{AK} + P_r + S_d$): Sie betrachtete ihn gerührt, Tränen in die Augen. Hayal o'gan tásirlenip qaradi, kózlerinde jas.

2. Akkuzativdagi ot + sifat (sifatdosh II) ($S_{AK} + Adj$ / Part II) *Er stand vor uns, weißlich verstaubt das Gesicht und die Lippen von der ewigen Hitze rissig und wund – Ol biziñ aldımızda turdı da, júzi appaq shañ, erinleri bolsa udayı issıdan jarılıp hám qanap ketken.*

3. Akkuzativdagi ot + ravish / olmosh ($S_{AK} + Adv$ / Pron):

Er saß an seinem Fensterplatze, vor sich das aufgeklappte Tischchen – Ol ayna aldında otırğan edi, aldında jynalatuğın stolsha.

Yuqorida berilgan nemischa gaplarni biz iloji boricha strukturasi o'zgartirmasdan qoraqalpoqchaga o'girishga harakat qildik. Bunday strukturalar turkiy tillarda ajratilgan ap bo'laklari deb yuritiladi. Lekin qoraqalpoq tilida ajratilgan to'ldiruvchi juda oz qo'llaniladi. Shu sababdan ham qoraqalpoq tili grammatikasi bo'yicha chop etilgan manbalarda bu sohada so'z kam yuritilgan. Strukturaning qoraqalpoq tilidagi varianti tushum (tabis) emas bosh (ataw) kelishigida kelgan. Bunday gaplar qoraqalpoq tilida ko'pincha boshqacha strukturada uchraydi: Hayal o'gan tásirlenip, kózlerinde jas penen qaradi. Ol shlyapasin qolına uslap kirip keldi. Keyingi misoldan ko'rinib turganidek, ayrim hollarda akkuzativdagi otning ma'nosi qoraqalpoq tilida ham tushum (tabis) kelishigida ifodalanadi, biroq gaplarning tuzilishi birdek emas.

Nemis tilida akkuzativning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, u orqali o'rin ma'nosi ifodalanadi. U ham ozod akkuzativ turiga mansub bo'lib, asosan harakatni (olg'a qaray) anglatuvchi o'timsiz fe'llar bilan qo'llaniladi: *steigen, gehen, laufen, springen, fahren*. Bunday fe'llar bilan faqat o'rin ma'nosiga yaqin bo'lgan otlargina ishlatiladi: *Straße, Weg, Strecke, Schritt* va boshqalar.

Er ging die Straße entlang – Ol kóshe boylap júrip ketti. Marsel trat einen Schritt auf mich zu. (J. Petersen. *Fahrt nach Paris*).

Marsel mağan qaray bir qádem tasladı.

Misollarning qoraqalpoq tiliga o'girilishidan ko'rinib turibdiki, nemis tilidagi akkuzativning o'rin ma'nosi ikkin-

chi tilda ham xuddi o'ziga o'xshash kelishikda (tabis) o'z ma'nosini topadi. Entlang predlogi nemis tilida akkuzativdagi ot ni boshqarib kelsa, boylap ko'makchisi ham xuddi shu kelishikni tushum (tabis) kelishigini boshqarib qo'llanadi. U boshqarib kelayotgan otning belgisi yoki belgisiz ishlatilishi to'g'risida biz so'z yuritgan edik. Ikkinchi gapdagi qádem so'zi ma'no jihatdan tushum (tabis) kelishigida turibdi, chunki taslaw (tashlamoq) fe'li o'zidan oldin turgan otning tabis kelishigida turishini talab qiladi: taslaw – neni?, kimdi? Biroq bu so'zlar turg'un bog'lama aylanib ketgan. Agar qádem so'ziga egalik affiksi qo'shilsa, u albatta tushum (tabis) kelishigining affiksi bilan ishlatiladi: Qáдемиñdi oylap bas (tasla)

Akkuzativ o'rin ma'nosidagi (*das Jahr, die Nacht, der Tag, die Woche, der Monat* u.a.) otlar orqali harakat yoki holatning sodir bo'lish vaqtini, davomiyligini ko'rsatadi, gapda o'rin holi vazifasida keladi:

Das Mädchen wohnte einen Monat bei dem Onkel. Qız dayısınıkinde bir ay jasadı.

Gestern habe ich den ganzen Tag an den Artikel gearbeitet. Keshe men kúni menen (kún boyı) maqala üstinde (tuwralı) jumıs isledim.

Shuningdek, akkuzativ harakatning biror, o'rin-joy ustida sodir bo'lishini ifodalasa qoraqalpoq tiliga *menen* (*benen, penen*) ko'makchisi bilan birgalikda keladigan bosh (ataw) kelishigidagi ot yoki chiqish kelishigi orqali beriladi: *ohne Hast trappeten die Pferde den ansteigenden Weg* (St. Zweig. *Nowellen*). *Atlar joqarığa shıgatuğın jol menen (joldan) ásten júrip ketti.*

Ein Jahr studierte ich in Kiev. Men Kieve bir jıl oqıdım.

Nemis tilida akkuzativda ifodalanadigan o'rin ma'nosi qoraqalpoq tilida bosh (ataw) kelishigidagi yoki *menen* (*benen, penen*), bo'yi ko'makchilari bilan qo'llanadigan otlar orqali beriladi.

Nemis tilida akkuzativ orqali javob olish, biror narsani so'rash ma'nolari anglashiladi. Akkuzativning bu ma'nosi qoraqalpoq tilida chiqish (shıgıs) kelishigi orqali ifodalanadi. Mana shu holat o'qish jaraynida o'quvchilar tomonidan xatoga yo'l qo'yilishiga sabab bo'ladi: *Der Lehrer fragt den Schüler – Mug'allım o'qu vchıdan soraydı.*

Xullas, nemis tilidagi akkuzativ qoraqalpoq tilidagi tushum (tabis) kelishiklari orasida tipologik uxshashliklar ham har bir tilning o'z xususiyatidan kelib chiqadigan farqlanishlar ham mavjud.

Adabiyotlar

1. Erben I. Abriß der deutschen Grammatik. – Berlin: 1965. – P. 101.
2. Schendels E. Deutsche Grammatik. – Moskau: 1988. – P. 98.
3. Виноградов В.В. Русский язык (грамматическое учение о слове). – Москва: 1947. – С. 81.
4. Дроздова Т.И. Опоры-символы и опоры-рифмовки на уроках английского языка. V.ж: Иностранные языки в школе. №6, 1999. – С. 35-38.
5. Ўзбек тили грамматикаси. Т.П. -Тошкент: «Фан», 1976. 183-б.

REZYUME. Ushbu maqolada nemis tilidagi akkuzativ kelishigining qoraqalpoq tilida ifodalanish xususiyatlari aniqlangan. Unda qardosh bo'lmagan tillardagi bu ikki kelishikning gapdagi berilish usullari, grammatik shakllari o'rganilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье определяются особенности выражения немецкого винительного падежа в каракалпакском языке. В ней изучаются способы и грамматические формы этих двух падежей в неродственных языках.

SUMMARY. This article is determined the features of the expression of the German accusative case in the Karakalpak language the methods and grammatical forms are studied in these two cases in unrelated languages.

TEÑEW HÁM EPITETLERDİŇ STILLIK QOLLANILIW ÓZGESHELİKLERİ

E.Allanazarov – filologiya ilimlerinin kandidati

G.Erniyazova – magistrant

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: lingvistika, frazeologiya, valentlik, ekvivalent, kontekst, obraz, semantika, shakl.

Ключевые слова: лингвистика, фразеология, валентность, эквивалент, контекст, образ, семантика, форма.

Key words: linguistic, phraseological, language, kontekst, concerning, peculiarities, semantical, forma.

Barlıq tiller sıyaqlı qaraqalpaq tilinde de teñew hám epitettler sóz mánilerin stillik jaqtan ózgertiw arqalı olardan ónimli paydalanıwda, semantialıq mání ózgesheliklerin qalıplestiriwde ayırıqsha orınǵa iye toplardan esaplanadı. Teñew hám epitettler kórkem shıǵarmalar tilinde ayırıqsha orın iyelep, qalıplesip keledi, sóz tásiriniñ sapalıǵın arttıradı hám funktsionallıq stillik xızmet atqaradı. Teñew hám epitettler mánilik ózgesheligi jaǵınan til baylıqlarınıñ

úlken bir toparı sıpatında toplardıñ ishinde ózine tán girewli orın iyeleydi.

Teñew hám epitettler adamzattıñ ishki sezimlerin, haywanatlar dúnyasın, tábiyat qubılısların óz ara teñew hám salıstırıw arqalı payda boladı, hám kórkem obrazlılıqtı qalıplestiriwde, sóz mánilerin keñeytiw maqsetinde ónimli qollanıladı.